

JINOYAT HUQUQIDA JINOYAT OBYEKTI TUSHUNCHASI

Komilov Shermuhammad Shuhratjon o‘g‘li

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi

“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

2-bosqich 25-guruh o‘quvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ijtimoiy xavfli qilmishlarni jinoyat deb topishda hamda jazo tayinlashda jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan jinoyat obyekti tushunchasi va uning jinoyat-huquqiy ahamiyati borasida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy munosabat, jinoyat, jinoyat obyekti, jinoyat predmeti, umumiy obyekt, maxsus obyekt, bevosita obyekt.

Аннотация:

В настоящей статье изложены взгляды на понятие охраняемого уголовным законом объекта преступления и его уголовно-правовое значение при признании общественно опасных деяний преступлением и назначении наказания.

Ключевые понятия: общественное отношение, преступление, объект преступления, предмет преступления, общий объект, специальный объект, непосредственный объект.

Abstract:

This article sets out the views on the concept of an object of crime protected by criminal law and its criminal legal significance in recognizing socially dangerous acts as a crime and imposing punishment.

Key concepts: social attitude, crime, object of crime, subject of crime, General object, special object, direct object.

Albatta sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish qaysidir ijtimoiy munosabatga tajovuz qiladi va zarar yetkazadi. Ushbu fikrdan ko‘rinib turibdiki, sodir etilgan qilmishlarni jinoyat deb topish hamda qanday ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilganligiga, zarar



yetkazganligiga qarab ularni kvalifikatsiya qilish va jinoiy jazo tayinlashda jinoyat huquqi nazariyasi va amaliyotida jinoyatning obyekti qanchalik dolzarb masala hisoblanadi.

Ma'lumki, ijtimoiy munosabatlar bu insonlar o'rtasida ularning hayotiy faoliyati jarayonida vujudga keladigan aloqalardir va ular jamiyatning mavjudligi jarayonida shakllanib boradi. Ijtimoiy munosabatlar qonun tufayli, jumladan, jinoyat qonuni tufayli yuzaga kelmaydi, ammo qonun ularning rivojlanishi, shakllanishi hamda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari bilan mosligini mustahkamlashga asos yaratishi mumkin. Ijtimoiy munosabatlar jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinganda, ular jinoyat xuquqiy muhofaza obyekti deb e'lon qilinadi va ma'lum shartlarda potensial jinoyat obyekti bo'lishi mumkin, shuningdek, bir ijtimoiy munosabat bir yoki bir necha jinoyat obyekti bo'lishi ham mumkin.

Jinoyat obyekti jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan eng ustuvor va ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan umumlashgan holda sof ijtimoiy kategoriya bo'lgan ijtimoiy munosabat bo'lib, jinoyat sodir etilishi natijasida ularga zarar yetkaziladi yoki zarar yetkazilishi xavfi ostida qoladi.

Jinoyat obyektining ahamiyati shundaki, u har bir jinoyatning zaruriy elementi bo'lib, birinchi navbatda aniqlanishi lozim. Tabiiyki, tajovuz obyektisiz hech qanday aniq jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi. Jinoyat obyektini to'g'ri anikdash qilmipshi to'g'ri kvalifikatsiya qilish va jinoyat tarkibini anikdashda muhim axamiyat kasb etadi, shuningdek, jinoiy qilmishlarni ma'muriy huquqbazarliklardan farqlash imkoniyatini beradi.

Jinoyat obyekti Jinoyat huquqi fanining Umumiyligini qismida jinoyat tarkibining bir elementi sifatida, Maxsus qismida esa muayyan jinoyat tarkibining zaruriy elementi sifatida o'r ganiladi. Obyektning belgilarini tadqiq etish jinoyat qonunchiligini qo'llash amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi.¹

Jinoyat obyekti tushunchasiga soha mutaxassislari o'z fikrlarini bildirib o'tganlar, bu borada M.Usmonaliyev: "Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar jinoyatning obyekti hisoblanadi. Bu tushuncha jinoyatning umumiyligini obyektining tushunchasi bo'lib, bu tushuncha orqali ham jinoyatning bo'lim va boblarga ajratib tasniflash imkonini bermaydi. O'zR JKning 2-moddasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar berilgan bo'lib, bular: shaxs,

¹ Jinoyat huquqi. (Umumiyligini qismida) Yuridik texnikum o'quvchilari uchun darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 49-bet.



shaxsning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, mulk, tabiiy muhit, tinchlik va insoniyatning xavfsizligi va ijtimoiy munosabatlarning ro'yxatini beradi. Ushbu moddada qonun chiqaruvchi organ ijtimoiy munosabatlarni sanab ko'rsatar ekan, shu ijtimoiy munosabatlarning jamiyatdagi ahamiyatga qarab bayon qilgan. Ushbu ro'yxatni ko'rар ekanmiz, uning boshida shaxs turibdi. Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalaridagi jinoyatlarni obyektga qarab tasniflash usulidan foydalanish eng qulay va maqsadga muvofiqdir. Jinoyat huquqida jinoyatning obyekti uch turga bo'lib tasniflangan, bular: umumiy obyekt; maxsus obyekt va bevosita obyektdir. Jinoyatning obyektiga tegishli masalalar jinoyatning obyektni o'rganishda tahlil qilinadi. Biz faqat obyektning JK Maxsus qismi moddalarini tasniflashdagi ahamiyatiga diqqatni qaratmoqchimiz, xolos"², - degan fikrlarni aytib o'tadi va biz bu fikrga qo'shilish o'rinali deb hisoblaymiz.

Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarning doirasi o'zgaruvchan xarakterga ega. U jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida yuz beradigan turli holatlarga muvofiq o'zgarib turadi. Jinoyat obyektni aniqlash jinoyat-huquqiy vositalar bilan himoya qilishga zaruriyat tug'ilgan yangi ijtimoiy munosabatlarga mos ravishda aniqlanadi.

Jinoyat obyekti ijtimoiy munosabat sifatida jinoyat predmetini nazarda tutadi. Jinoyat huquqiy muhofaza obyektiga qaratilgan tajovuz bevosita jinoyat predmetiga ko'chadi. Lekin jinoyat obyekti va jinoyat predmeti bitta narsa emas. Jinoyat obyekti bu ijtimoiy munosabat bo'lsa, jinoyat predmeti jinoyat obyektiga nisbatan tajovuz qilishda aybdor shaxs to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadigan, u tufayli yoki uning uchun jinoyat sodir qilingan obyektiv olamdagи jonli yoki jonsiz moddiy narsalar, buyum, ashyolardir.

Har qanday jinoyat tarkibining zaruriy elementi bo'lган jinoyat obyektidan farqli ravishda jinoyat predmeti fakultativ belgi hisoblanadi. Masalan, tuhmat (JK 139moddasi), haqorat qilish (JK 140moddasi), dezertirlik (JK 288moddasi) kabi jinoyatlarda jinoyat predmeti mavjud emas. Agar jinoyat predmeti Jinoyat Kodeksi Maxcyc qismi tegishli moddalarida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, jinoyat tarkibining zaruriy elementi vazifasini bajaradi va kvalifikatsiyaga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, kontrabanda (JK 246moddasi), transport vositasini olib qochish (JK 267moddasi) kabi jinoyat tarkiblarida jinoyat predmeti jinoiy javobgarlikka tortish bilan bevosita bog'liq.

² M. Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: "Yangi asr avlodи", 2010. 84-bet.



Bunday holatlarda jinoyat tarkibining zaruriy elementi sifatida jinoyat predmeti ijtimoiy xavfli qilmishni kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat obyekti tushunchasi jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabat sifatida quyidagicha izohlanadi.

Birinchidan, ijtimoiy munosabat muayyan jinoyat turi uchun jinoiy javobgarlik o‘rnatadigan norma qabul qilinishi bilan jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektga aylanadi. Mazkur normada nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan holda ushbu ijtimoiy munosabat jinoyat obyekt sifatida maydonga chiqadi. Jinoyatni har doim ham qilmishning obyektga qarab farqlash imkonи mavjud bo‘lmaydi; jinoyat sifatida e’tirof etilgan qilmishning xususiyati va xavflilik darajasi faqat uning obyekt bilangina emas, balki jinoyat natijasida yuz bergan oqibatning xususiyati, xavflilik darajasi, jinoyatni sodir etish usul va vositalari, jinoyat sodir etgan shaxsning qilmishga nisbatan munosabati va boshqa jihatlariga ko‘ra ham aniqlanadi.

Ikkinchidan, qonun chiqaruvchi turli sabablarga ko‘ra, JK moddalarida jinoyat obyektni ayrim hollarda ijtimoiy munosabatning alohida elementlariga ishora sifatida ko‘rsatadi. Boshqa hollarda esa tegishli ijtimoiy munosabatni o‘zida aks ettiruvchi muayyan huquqiy shaklni belgilaydi.³

Shunday qilib, aytish lozimki, jinoyatlarni ijtimoiy xavfli qilmish sifatida baholash, kvalifikatsiya qilish hamda jazo tayinlashda jinoyat obyekti tushunchasi dolzarb jinoyat huquqiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
3. M. Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. Umumiyl qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: “Yangi asr avlodи”, 2010.
4. Jinoyat huquqi. (Umumiyl qism) Yuridik texnikum o‘quvchilari uchun darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020.
5. M.H.Rustamboyev. Jinoyat huquqi (umumiyl qism) oliy o‘quvlari uchun darslik. T.: – “ILM ZIYO” – 2005.

³ Jinoyat huquqi. (Umumiyl qism) Yuridik texnikum o‘quvchilari uchun darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 51-bet.